

Surxondaryolik pillakorlar ham zafar quchdi



Surxondaryolik pillakorlar ham zafar quchdi

Surxondaryo viloyati pillakorlari 1 ming 715 tonnadan ortiq “kumush tola” tayyorlab, shartnomaga majburiyatini bajardi. Pillakorlar mahalliy iqlimga mos, serhosil, kasalliklarga chidamli 30 ming 572 quti ipak qurti urug’ini parvarishlab, o’rtacha hosildorlikni 56,1 kilogrammga yetkazdi. Yetishtirilgan hosilning asosiy qismi yuqori navlarga qabul qilindi. Erishilgan bu muvaffaqiyatga viloyatning, ayniqsa, Sho’rchi, Bandixon, Denov tumanlari pillakorlari munosib ulush qo’shdi. Sho’rchi tumanidan “Qarshiev Ilyos”, “Turdimurod”, “Ro’zi Mamaramimov”, Bandixon tumanidan “Sodiqbobo”, “Ko’ksoy obod”, “Baraka yorliq”, Denov tumanidan “Abdulkoshim Laziz”, “Mamatmo’min Choriyor”, “Isomiddin Shahobiddin” kabi ko’plab fermer xo’jaliklari pilla yetishtirish bo'yicha shartnomaviy rejalarini 110 foizga oshirib bajardi. Viloyatda qabul punktlariga pilla hosilini topshirish davom etmoqda.